# XALQ DEPUTATLARI TAXIATOSH TUMANI KENGASHINING

# Q A R O R I

2025-yil 2-aprel VII-6-48-13-215-K/25 Taxiatosh tumani

**Tumandagi mavjud ayrim ko‘chalarni nomlash va qayta nomlashning qonun talablariga muvofiqligi to‘g‘risida**

O‘zbekiston Respublikasi Iqtisodiyot va moliya vazirligi huzuridagi Kadastr agentligining 2025-yil 30-yanvar kungi 03/08-997-sonli xati, Qoraqalpog‘iston Respublikasi Vazirlar Kengashi huzuridagi Geografik obyektlarni nomlash va qayta nomlash masalalari bo‘yicha komissiyasining 2024-yil 31-maydagi 11-04/5-05/1631-son murojaatnomasi va unda qayd etilgan Qoraqalpog‘iston Respublikasi hamda Taxiatosh tumani komissiyalarining jami 16 ta geografik obyekt (ko‘cha, tor ko‘cha, berk ko‘cha)ni nomlash va qayta nomlash bo‘yicha taklifi ekspert komissiyasi tomonidan o‘rganib chiqildi.

O‘rganish natijalariga ko‘ra, shuningdek, tegishli qonun hujjatlari talablaridan kelib chiqib, Ekspert komissiyasi quyidagi xulosaga keldi:

Qoraqalpog‘iston Respublikasi hamda Taxiatosh tumani komissiyalari tomonidan taqdim etilgan 16 ta geografik obyektning nomi O‘zbekiston Respublikasining “Geografik obyektlaming nomlari to‘g‘risida”gi 303-sonli qonun hujjatlari talablariga muvofiq. O‘zbekiston Respublikasi “Mahalliy davlat hokimiyati to‘g‘risida”gi Qonunining 6-moddasiga muvofiq xalq deputatlari tuman Kengashi

QAROR QILADI:

1. Qoraqalpog‘iston Respublikasi Vazirlar Kengashi huzuridagi Geografik obyektlarni nomlash va qayta nomlash masalalari bo‘yicha komissiyasining 2024-yil 31-maydagi 11-04/5-05/1631-son murojaatnomasi va unda qayd etilgan Qoraqalpog‘iston Respublikasi hamda Taxiatosh tumani komissiyalarining jami 16 ta geografik obyekt (ko‘cha, tor ko‘cha, berk ko‘cha)ni nomlash va qayta nomlash bo‘yicha taklifi maqullansin.

2. Xalq deputatlari Taxiatosh tumani Kengashining 2020-yil 29-dekabr kungi 18/54-sonli qarori ilovasiga o‘zgartirish kiritilsin.

3. Tumandagi qonun hujjatlari talablariga muvofiq deb topilgan ko‘cha nomlari va toifalari ilovaga asosan tasdiqlansin.

4. O‘zbekiston Mahallalar uyushmasi tuman bo‘limi, tuman Obodonlashtirish boshqarmasi, tuman “Yo‘llardan foydalanish” unitar korxonasiga:

- bir oy muddatda tuman mahalla fuqarolar yig‘inlaridagi ko‘cha nomlari ushbu qaror ilovasiga muvofiq tasdiqlangan ro‘yxat asosida nomlarni qaytadan o‘rnatish;

- olib borilgan ishlar to‘g‘risidagi ma’lumotlarni belgilangan muddatda xalq deputatlari tuman Kengashi sessiyalari muhokamasiga kiritish vazifasi yuklatilsin.

5. Ushbu qaror ijrosini nazorat qilish xalq deputatlari tuman Kengashining Sanoat, transport, qurilish, aloqa, kommunal xo‘jalik hamda aholiga xizmatlar ko‘rsatish komissiyasi zimmasiga yuklatilsin.

Sessiya raisi

MADAMINOV ALISHER ABDULLAYEVICH

Xalq deputatlari Taxiatosh tumani Kengashining
2025-yil 2-apreldagi
VII-6-48-13-215-K/25 -son qaroriga
1-ilova

**Geografik obyektlarga nom berish yoki ularni qayta nomlash to‘g‘risidagi takliflarning qonun hujjatlari talablariga muvofiqligi haqida**

## EKSPERT XULOSASI

Qoraqalpog‘iston Respublikasi Vazirlar Kengashi huzuridagi geografik obyektlarni nomlash va qayta nomlash masalalari bo‘yicha komissiyasining 2025-yil 13-yanvardagi 11-04/5-01/134-sonli murojaatnomasi va unda qayd etilgan Qoraqalpog‘iston Respublikasi hamda Taxiatosh tumani komissiyalarining jami 16 ta geografik obyekt (ko‘cha, tor ko‘cha, berk ko‘cha) ni nomlash bo‘yicha taklifi ekspert komissiyasi tomonidan o‘rganib chiqildi.

O‘rganish natijalariga ko‘ra, shuningdek. tegishli qonun hujjatlari talablaridan kelib chiqib, Ekspert komissiyasi quyidagi xulosaga keldi:

Qoraqalpog‘iston Respublikasi hamda Taxiatosh tumani komissiyalari tomonidan taqdim etilgan jami 16 ta geografik obyektni nomlash bo‘yicha taklifidan 16 ta geografik obyektning nomi O'zbekiston Respublikasining “Geografik obyektlarning nomlari to‘g‘risida”gi 303-sonli Qonun hujjatlari talablariga muvofiq deb topildi. Shundan, 1 ta geografik obyekt nomi “Geografik obyektlar nomlarining o‘zbek tilida yozilishi" qoidalari asosida normallashtirildi.

**Taxiatosh tumani**
**(Xatlov natijasida nomlash va qayta nomlash uchun aniqlangan ko‘chalar)**

| T/i | Geografik obyektning turi | Geografik obyektning bog‘lanishi | Geografik obyektning amaldagi nomi | Viloyat koinissiyasi tomonidan berilgan taklif | Hududiy komissiya tomonidan berilgan xaritaga ekspert komissiyasining xulosasi | Ekspert komissiyasining umumiy xulosasi |
|---|---|---|---|---|---|---|
| 1. | Ko‘cha | Saroyko‘l mahallasi | Nomsiz | Jayron | Xaritada geografik obyektning turi to‘g‘ri ko‘rsatilgan. | Qonun hujjatlari talablariga muvofiq. |

| | | | | | | |
|---|---|---|---|---|---|---|
| 2, | Tor ko‘cha | Saroyko‘l mahallasi | Nomsiz | Jayron-1 | Xaritada geografik obyektning turi to‘g‘ri ko‘rsatilgan. | Qonun hujjatlari talablariga muvofiq. |
| 3. | Tor ko‘cha | Saroyko‘l mahallasi | Nomsiz | Jayron-2 | Xaritada geografik obyektning turi to‘g‘ri ko‘rsatilgan. | Qonun hujjatlari talablariga muvofiq. |
| 4. | Ko‘cha | Saroyko‘l mahallasi | Nomsiz | Somonbozor | Xaritada geografik obyektning turi to‘g‘ri ko‘rsatilgan. | Qonun hujjatlari talablariga muvofiq. |
| 5. | Tor ko‘cha | Saroyko‘l mahallasi | Nomsiz | Somonbozor-1 | Xaritada geografik obyektning turi to‘g‘ri ko‘rsatilgan. | Qonun hujjatlari talablariga muvofiq. |
| 6. | Tor ko‘cha | Saroyko‘l mahallasi | Nomsiz | Somonbozor-2 | Xaritada geografik obyektning turi to‘g‘ri ko‘rsatilgan. | Qonun hujjatlari talablariga muvofiq. |
| 7. | Berk ko‘cha | Keneges mahallasi | Nomsiz | Erkindaryo -2 | Xaritada geografik obyektning turi to‘g‘ri ko‘rsatilgan. | Qonun hujjatlari talablariga muvofiq. |
| 8. | Ko‘cha | Keneges mahallasi | Nomsiz | Olchabog‘ | Xaritada geografik obyektning turi to‘g‘ri ko‘rsatilgan. | Qonun hujjatlari talablariga muvofiq. |
| 9. | Ko'cha | Keneges mahallasi | Nomsiz | Shahriobod | Xaritada geografik obyektning turi to‘g‘ri ko‘rsatilgan. | Qonun hujjatlari talablariga muvofiq. |
| 10. | Ko‘cha | Keneges mahallasi | Nomsiz | Sayxun | Xaritada geografik obyeklning turi to‘g‘ri ko‘rsatilgan. | Qonun hujjatlari talablariga muvofiq. |

| | | | | | | |
|---|---|---|---|---|---|---|
| 11. | Ko‘cha | Taxiatosh mahallasi | Nomsiz (Bulbul) | Ziyo | Xaritada geografik obyektning turi to‘g‘ri ko‘rsatilgan. | Qonun hujjatlari talablariga muvofiq. |
| 12. | Ko‘cha | Aydinjo‘1 mahallasi | Nomsiz 1-ko‘cha | Minora | Xaritada geografik obyektning turi to‘g‘ri ko‘rsatilgan. | Qonun hujjatlari talablariga muvofiq. |
| 13. | Tor ko‘cha | Aydinjo‘1 mahallasi | Nomsiz 1/1-tor | Minora | Xaritada geografik obyektning turi to‘g‘ri ko‘rsatilgan. | Qonun hujjatlari talablariga muvofiq. |
| 14. | Ko‘cha | Aydinjo‘l mahallasi | Nomsiz 2-ko‘cha | Shirinsoy | Xaritada geografik obyektning turi to‘g‘ri ko‘rsatilgan. | Qonun hujjatlari talablariga muvofiq. |
| 15. | Ko‘cha | Do‘stlik mahallasi | 2-kichik tuman hududi ko‘chasi | Sirg‘ali | Xaritada geografik obyektning turi to‘g‘ri ko‘rsatilgan. | Qonun hujjatlari talablariga muvofiq. |
| 16. | Ko‘cha | Naymanko‘l mahallasi | Nomsiz 1-ko‘cha | Yashil makon | Xaritada geografik obyektning turi to‘g‘ri ko‘rsatilgan. | Yashilmakon - “Geografik obyektlar nomlarining o‘zbek tilida yozilishi” qoidalari asosida normallashtirildi.Qonun hujjatlari talablariga muvofiq. |